

**MAVZU: KASB HUNAR KOLLEJDLARI
O‘QITUVCHILARINING MUOMULA MADANIYATI.**

Reja:

1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi.
2. SHaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni.
3. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari.
4. Muloqot va uni o‘rganish muammolari.
5. Samarali ta’sir psixologiyasi.
6. Xulosa.
7. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi

SHaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsulii deyilishining eng asosiy sababi - uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'ekt-sub'ekt tipli (diologik, sheriklik) yoki sub'ekt-ob'ektli (monologik) bo'lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu - quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir - birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim xollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reakstiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona - bola, qaynona - kelin va x-zo).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari - o'zaro til topishish, bir-birini

tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, «jozibasi», betakrorligi shundaki, o'zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan xol-ahvol so'radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom - alikni bajo keltirib o'tib ketavergan bo'lardingiz. YA'ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar.

XXI asrda yashar ekanmiz, odamning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan habardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o'tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etdi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylandi va bu o'z navbatida insonlarga zarur axborotlar uzatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrning korporastiyalar asri deb, bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu

korporastiya insonlarning o'zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo'lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko'p xollarda bevosita yuzma-yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar - uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, Internet kabilar yordamida aniq va lunda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o'ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sostionomik guruh kasblar deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsuliini belgilaydi.

SHuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sostial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi.

SHaxslararo munosabatlarni o'rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. CHunki inson shaxsining eng nufuzli va etakchi faoliyatlaridan biri bo'lgan muloqot va u orqali o'zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta'sir etadi. SHunday ekan, insonlar orasida amalga oshadigan shaxslararo munosabatlar, ularning turli psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya fanida muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Muomala shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar o'zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok

etadilar, tushunish va baxolash jarayonlarini kechiradilar. SHuning uchun muomala ijtimoiy psixologik xodisa, ijtimoiy kategoriya sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida bevosita ishtirok etib, xamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, emostional, kognitiv, motivastion, regulyativ qirralarini aks ettiruvchi ob'ektiv va sub'ektiv ehtiyoj sifatida vujudga keladi, ijtimoiylashuvning asosiy omili, negizi vazifasini bajaradi.

SHaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini psixolog olimlardan L.S.Vo'gotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananayev, A.V.Zaporozhskiy, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, A.A.Leontev, M.I.Lisina tadqiqot ishlarini olib borganlar.

L.S.Vo'gotskiy bola shaxsi ruxiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalani tushuntirib deydi: "Bola shaxsiy faolligini namoyon bo'lishining asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi...Uning tashqi olamga munosabati xamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishdir".

L.S.Vygotskiy fikricha, ontogenezda genetik jihatdan birlamchi o'zaro ta'sir baxs, dialogdir; ikkilamchi esa individning ongi, ruxiy jarayonlarining individualligidir: "Biz madaniy rivojlanishning umumiy genetik qonunini mana shunday shaklda ifodalashimiz mumkin: bolaning madaniy o'sishida har qanday funktsiya baholanishi uchun ikki marta, ikki xil rejada paydo bo'ladi, avval ijtimoiy, keyin psixologik, shuningdek, shaxslararo interpsixologik kategoriya sifatida so'ng bola ichki dunyosida intropsixologik kategoriya tariqasida".

L.S.Vygotskiy shuningdek shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muomala jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda dastavval muomala asosiy vosita, so'ngra esa xulq atvor vositasi turadi. CHunki inson yakka qolgan paytda ham muomala funktsiyasini o'zida saqlaydi.

L.S.Vo'gotskiy qarashlaridan yana shu jihat ko'rinadiki, muomala intereozastiya, ya'ni ichki nutq va ektereozastiya, ya'ni tashqi nutq,

muomala shakllarida namoyon bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, muomala tufayli shaxs ijtimoiylashuvi yuzaga keladi.

Demak, L.S.Vygotskiyning muomala, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid fikrlari g‘oyat qimmatli, chunki unda biz shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni uchun muhim asos sifatida muomalani ko‘ramiz va shaxs shakllanishida bu jarayonning qimmatli cheksiz ekanligini yanada anglaymiz.

V.M.Bexterevning boy merosida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muomala mavzusi ijtimoiy psixologik nazariya jixatidan o‘rganilgandir. Uning qarashlarida insonlarning o‘zaro ta‘sir etishlari muammo sifatida talqin etiladi. V.M.Bexterev ijtimoiy xayotda muomalaning rolini tavsiflab, uning funkstiyalarini xamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagilari bilan muomalasi qanchalik xilma xil va boy bo‘lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga oshadi.

V.M.Bexterev muomalaning ijtimoiy roli va funkstiyasini taxlil etishda uning ko‘rinishlari bo‘lmish taqlid va ta‘sir lanish axamiyatiga to‘xtaladi. Uning fikricha, taqlid bo‘lmasa, shaxs xam yuzaga kelmas edi. Chunki taqlid o‘z materialini muomaladan olishini uqtiradi. Ta‘sir lanish esa ijtimoiy jarayonlar namoyon bo‘lishining omili tariqasida qaraladi.

V.M.Bexterev muomalani shartli ravishda bevosita va bilvosita turlarga xam ajratadi. Bilvosita muomala tarkibiy qismlari sifatida xat, telefon, telegramma, erkalash, urishish va boshqalarni olsa, bevosita muomala turiga nutqni kiritadi. SHuni ta‘kidlash joizki, muomalani eksperimental o‘rganish ishini V.M.Bexterev tomonidan amalga oshirilgandir.

V.N.Myasihevning «SHaxsning munosabatlar psixologiyasi» konstepstiyasiga ko‘ra, shaxs “dialogik” xususiyatli, muomalaning shaxsiy tajribasi va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabat maxsuli sifatida namoyon bo‘ladi. SHu tufayli shaxsda qiziqish darajasi, emostiya kuchi,

xoxish, extiyoj, ijtimoiy yo‘nalganlik kabi shaxsni xarakatlantiruvchi ichki kuchi tarkib topadi va bu uning kechinmalari, xulqida, xarakatida ifodalanadi.

V.N.Myasihevning shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid asarlarining taxlilidan ko‘rinadiki, muomala jarayoni shaxsning xususiyatlari, xarakteri, mayli, qobiliyatiga ta’sir etishdagina rivojlanmasdan, balki muloqotda ishtirok etuvchilarning psixik jarayonlari bilan xam bog‘liqligi namoyon bo‘lar ekan. SHuning uchun V.N.Myasihev ishlarining alohida tomoni muomala, uning psixologik tuzilmasi bilan muloqot ishtirokchilari psixik jarayonlari orasidagi munosabat xususiyatlarini ochib berilishida yaqqol ko‘rinadi.

SHaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan uch xil vazifalar va murakkab jarayon tuzilmasini G.M.Andreeva “Ijtimoiy psixologiya” kitobida ushbu tuzilishini taklif etadi:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni, ya’ni o‘zaro munosabat yoki muloqotga kirishuvchilarning o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi jarayoni sifatida;
2. Muloqotning interaktiv tomoni, ya’ni muloqotga kirishuvchilarning xulq atvorlariga ta’sir jarayoni sifatida;
3. Muloqotning persteptiv tomoni, ya’ni muloqotga kirishuvchilarning bir birlarini idrok etishlari va tushunchalari bilan bog‘liq jarayon sifatida.

O‘zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F.Parigin shunday yozadi: “Muloqot shunchalik ko‘p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o‘zida quyidagilar kiradi:

- A) individlarning o‘zaro ta’sir jarayoni;
- B) individlar o‘rtasida axborot almashinuvi jarayoni;
- V) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- G) bir kishining boshqalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni;
- D) bir biriga xamdardlik bildirish imkoniyati;

E) shaxslarning bir birini tushunishi jarayoni”.

Demak, shaxslararo munosabatlar, ya’ni muloqot jarayoni odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar orasida eng murakkabligi va ko‘p qirraliligi bilan xarakterlanar ekan, ijtimoiy psixologiya fanida olib borilgan jahon psixologlarining juda ko‘p tadqiqotlari shu fenomenni shaxs uchun ham zarur, ham oddiy, ham ta’sirchan deb qaraydi.

2. SHaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy kiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuksonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan odam o‘zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo‘lolmaydi. SHuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funkstiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funkstiyasi - suhbatdoshlarning o‘zaro *bir-birini tushunishlarini* ta’minlashdir. Bu o‘zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O‘zbek halkining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko‘rishadi, so‘rashadi, xol-axvol so‘raydi. SHunisi xarakterliki, ta’ziyaga borgan chog‘da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va halklarda ham bor, ya’ni bu jihat milliy o‘ziga xoslikka ega.

Uning **ikkinchi** muhim funkstiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o‘ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o‘g‘rilanib ketilishi, so‘ng ma’lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo‘lishi faktlari shuni ko‘rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko‘plab psixologik eksperimentlarda o‘z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyastiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, havotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. SHunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g'or ichidagi tanxo tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

SHaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniksa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operastiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam

unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. SHuning uchun ham amerikalik sostiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sostiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sostiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Insoniyatning muomala quroli til bo'lib, odamlar bir-birlari bilan bo'ladigan barcha munosabat va muloqotlarini so'zlashish yordamida amalga oshiradilar. Dono xalqimizda so'zlashish qoidasi, tilga ehtiyotkor bo'lish, har bir so'z, har bir jumlaning o'ylab gapirish, qisqasi - so'zlash odobi va muloqot madaniyati haqida juda ko'p ibratli hikmatlar bor. Ulardan birida keltirilishicha, odamning sharafi va iftixori uning madaniy so'zlashishida ko'rinadi. Kimda-ki so'zlashish odobiga rioya qilmasa, unda insoniylik ham ko'rinmaydi. Gap o'rinli va ma'noli aytilgan bo'lsa, uni jim turib tinglamoq foydalidir.

Bu borada so'zlashishning sakkizta qoidasini keltirishni lozim deb topdik:

- bemavrid gapirmaslik;
- lutf ila yumshoqlik bilan so'zlashish;
- ochiq chehra bilan gapirib, yuzda samimiylilikni saqlay olish;
- eshituvchiga malol kelmaydigan tarzda gapirish;
- faqat foydali gaplarni gapirish.
- o'ylab, andisha bilan so'zlash, o'ylamay aytilgan gap pushaymonlik keltirishini yodda tutish;
- kishilar gapirayotganda oraga gap qo'shmaslik, so'zini bo'lmaslik;
- ko'p gapirmaslik, zero, bu yaxshilik alomati emas.

Har bir odam kishilarga zarar keltiradigan so'zlardan o'zini saqlashi lozim. Zero, muqaddas Hadisi sharifda aytilganidek, "O'zingga ravo ko'rmagan yomon narsani birovga ham ravo ko'rma". Buning uchun tilga

ehtiyot bo'lish, kishi dilini og'ritadigan, ko'ngilni qoldiradigan, izzat nafsiga tegadigan, or-nomusi, sha'nini oyoq-osti qiladigan so'zni hech so'zlamaslik darkor. Hamma vaqt shirin so'z bo'lish, doimo yaxshi, ma'nili so'zlash kerak, chunki, tildan etgan ozor nayza ozoridan yomon...

SHunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va mulokat texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

3. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari

Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. *Psixologik ta'sir* - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. **Verbal ta'sir** - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasiidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

2. **Paralingvistik ta'sir** - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyastiya, tovushlar, to'xtashlar,

duduqlanish, yo‘tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. SHunga qarab, masalan, do‘stimiz bizga biror narsani va‘da berayotgan bo‘lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

3. **Noverbal ta’sirning** ma’nosi «nutqsiz» dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, xidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o‘rtog‘ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko‘rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta’sir ko‘rsatmoqchi bo‘lishganda, dastavval nima deyish, qanday so‘zlar vositasida ta’sir etishni o‘ylar ekan. Aslida esa, o‘sha so‘zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o‘ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko‘ra, birinchi marta ko‘rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo‘lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta’sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o‘zgarishi mumkin albatta, lekin halq ichida yurgan bir maqol to‘g‘ri: «Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko‘proq ta’sirga ega bo‘lishi sheriklarning rollariga ham bog‘liq. *Ta’sirning tashabbuskori* - bu shunday sherikki, unda ataylab ta’sir ko‘rsatish maqsadi bo‘ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta’kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o‘rnidan turib kutib oladi, iltifot ko‘rsatadi, xol-ahvolni ham quyuqroq

soʻraydi va soʻngra gapning asosiy qismiga oʻtadi.

Taʼsirning adresati - taʼsir yoʻnaltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi boʻlmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik boʻlsa, u tashabbusni oʻz qoʻliga olishi va taʼsir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin boʻladi.

9.4. Muloqot va oʻrganish muammolari

Oxirgi yillarda «professionalizm» tushunchasi tez-tez ishlatiladigan boʻlib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini «inson omili» ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi boʻlib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta eʼtibor qaratilmoqda. Juda koʻpchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funkstiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga taʼsir koʻrsatish, ular faoliyatini toʻgʻri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini eʼtirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni oʻrnata olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, oʻz nuqtai nazariga oʻzgalarni professional tarzda koʻndira olmaslik, «birov» ni, uning ichki kechinmalari va oʻziga boʻlgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikatsiya* holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir - birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga choʻzilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tadbiqiy yoʻnalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka oʻrgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxona, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menejer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga oʻrgatish muammosini chetlab oʻtolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis - vrach, muhandis,

o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professional mahoratini ko'rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish - ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofida gilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini uylab gapiradigan, har bir qadamini uylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqesini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. SHunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashxur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining

45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikastiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

SHuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. SHopengauer «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xoxlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy halaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. SHuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa erda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma - so'z qaytarish* va *boshqacha talqin etish*. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa - sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, «Yo'g'-e?», «Naxotki?», «Qara-ya?», «YAsha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs etakchi, u suhbatning

mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. SHuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

■ *aktiv holat.* Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

■ *suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish.* Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

■ *o'ychan jimlik.* Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z-o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. SHuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va

tinglashning faol o‘zaro ta’sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon katnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo‘lmaydi. SHuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o‘rgatishga juda katta e’tibor beriladi. Bu boradagi fanning o‘z uslubi bo‘lib, uning nomi ***ijtimoiy psixologik trening*** (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi - IPTning bir ko‘rinishi bo‘lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo‘ladigan kommunikativ malaka, ko‘nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo‘l-yo‘riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so‘zlashga o‘rgatish, majlislar o‘tkazish, janjalli, nizoli holatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bundagi asosiy narsa - trening katnashchilari ongiga birovlarini tushunish, o‘zini o‘zga o‘rniga qo‘ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o‘zinikini uygunlashtira olish g‘oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o‘yinlarning* eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Qisqacha xulosalar:

Ushbu mavzu mobaynida shaxs uchun muhim bo‘lgan muomalaning texnikalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keng tarzda keltirilgan. Verbal, noverbal va paralingvistik ta’sir vositalarining amaliyotda qo‘llanish usullari ko‘rsatilgan. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari va shart-sharoitlari, ijtimoiy institutlarining bu jarayondagi o‘rni: “Oila-bog‘cha-mahalla-maktab-maxsus va oliy ta’lim muassasalari - mehnat jamoalari” tizimidagi o‘rni tahlil qilingan.

1. Muomala — axborot jarayonidir. Axborot ikki yunalishda: boshqarish sub'ektidan (pedagogdan) boshqarish ob'ektiga (O'quvchilarga) boradi va aksincha — ob'ektdan sub'ektga boradi.

Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan o'z tarbiyalanuvchilari, o'z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni, ham uning o'quvchilarga murojatida tagma'no tarzida botinib kirib boradigan axborotni ma'lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat xilma-xil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U faqat shaxsning hulq-atvorida namoyon bo'ladigan yorqin va eng ta'sirchan tashqi belgilarnigina qayd etish imkonini berib qolmaydi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirtdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin. Bu xol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

Bolalar bilan bevosita muomala pedagogka jamoadagi yoki ayrim O'quvchilardagi biron-bir voqeani rivojlanish jarayonida o'rganish zarur bo'lganda, ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishda, ularning to'zilishi, paydo bo'lishi va rivojlanishini ko'zatish, bundan tashqari, bu hodisalar va jarayonlarning yanada rivojlanishi to'g'riligini ma'lum darajada oldindan aytib berish kerak bo'lganda ham zarurdir. Biroq, muomala usullarida «axborot shovqini» ancha ko'p bo'lib, u ko'p yoki oz darajada axborot tashuvchi bo'lishi mumkin. Bu xol birinchi navbatda pedagog bilan o'quvchilar o'rtasida qaror topgan munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin pedagogning shaxsi ham katta rol uynaydi.

Ayni bir xil hodisaning turli kishilar tomonidan zuhur qilinishidagi farq uning shaxs o'tmishidagi tajribasiga bog'liqligi bilan izohlanadi, bu **tajribaning uch jihati bor**: umuman hayotiy tajriba, pedagogik faoliyat tajribasi va muayyan jamoa bilan, muayyan o'quvchilar bilan muomalada bo'lish tajribasi. Pedagogning boshqa kishilar bilan muomalada bo'lish tajribasi, bu tajribaning boyligi va muntazamlilik darajasi, pedagogning o'zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligi, uning voqelikni qay darajada idrok etishga va olingan axborotga baho berishga qodirligini aniqlab beradi.

Ikkinchi tomondan, pedagoglik faoliyat kishini o'zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa uning o'z sheriklari ahvolini fahmlab, bilib olish va ular haqida hO'qm yuritish qobiliyatini oshiradi.

Nihoyat, pedagogning o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning hulq-atvor usullaridan foydalanadi.

Bu narsa pedagoglik faoliyatida ayniqsa sezilib turadi. Bu qonuniy bir xoldir, chunki **«biz kundalik hayotda odamlar bilan muomalada bo'lar ekanmiz, ularning hulq-atvorini bilib olamiz, chunki biz uni go'yo o'qiganday bo'lamiz, ya'ni hulq-atvorning tashqi ko'rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda hosil bo'lgan, o'zining ichki psixologik rejasiga ega bo'lgan tekstning ma'nosini ochib beramiz»**. Bu «O'qish» yo'l-yo'lakay bo'ladi, chunki atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda ularning hulqiga doir ma'lum darajada avtomatik tarzda mavjud bo'lgan psixologik tagma'no hosil bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o'rni to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. SHu munosabat bilan tarbiya diskret (o'zloqli) jarayon ekanligini nazarda tutish kerak. Bolalar kiradigan turli jamoalar, unga nisbatan

tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga ta'sir qiluvchi tevarak atrofdagi voqelikning ko'pdan-ko'p omillari bir-biri bilan etarli darajada aniq va puxta ishlab chiqilgan aloqa tizimiga ega emas. Har bir o'quvchiga har xil ta'sirlar oqimi etib boradi, ular bir-birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma'lum darajada biri ikkinchisiga zid kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda pedagogning o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida shu narsada namoyon bo'ladiki, u ma'lum darajada bu ta'sirni birlashtiradi, ularning zanjiridagi etishmovchi halqlarning o'rnini to'ldiradi, bu ta'sirning ziddiyatli tarkibiy qismlariga to'zatish kiritadi. SHubhasiz, muomala cheklangan tarzda bo'ladi. Lekin pedagogning o'z tarbiyalanuvchilariga ko'rsatiladigan turli-tuman ta'sirlarning xususiyatidan xabardorligi, uning ana shu ta'sirni birlashtirish, o'rnini to'ldirish va unga to'zatish kiritishga intilishi, uning shaxsiy sifatлари, o'quvchilarga munosabati va pedagogik mahoratiga qarab, boshqarish vositasi bo'lgan muomalaning samaradorligi ko'p yoki oz darajada bo'lishi mumkin.

Boshqarish vositasi bo'lgan muomala vazifasini amalga oshirish jamoadagi faoliyat muomala, munosabatlar tizimi doirasida sodir bo'ladi. Bunga sabab shO'qi, muomala pedagoglarning o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi jarayonida ham va ular bilan bevosita muomala qilishda ham amalga oshiriladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan oldin bo'ladi, pedagoglar bu faoliyatga o'quvchilarni jalb qiladilar. Bunday xolda muomala orqali o'quvchilarning faoliyatini tashkil etish yuzasidan muayyan yo'l-yuriq, beriladi va uni amalga oshirish jarayonida munosabat normalari kiritiladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala o'quvchilarning faoliyatiga hamrohlik qiladi. U orqali pedagog faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullariga to'zatishlar kiritadi, ayrim o'quvchilarning, umuman jamoaning kuch-g'ayratini, faoliyat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni muvoffiqlashtiradi. Nihoyat, boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan keyin boradi. Bu faoliyatga yakun yasash, uni amalga oshirish, unda ayrim o'quvchilarning ishtirok etishi, faoliyat jarayonidagi munosabatlarni tartibga

soluvchi normalarni tahlil qilish, qo‘shimcha normalarni ishlab chiqish tarzida sodir bo‘ladi.

SHuni ta’kidlash kerakki, muomalaning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha vazifalarini qulay tarzda amalga oshirish uni pedagogik muomala, ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muomalaning yuqori darajasi deb ta’riflash imkonini beradi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi xuddi shunday darajaga erishmog‘i lozim

2.Muloqot orqali ta’sir etish. Muloqotga kirishish.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomalasi jarayonida munosabatning **ikki xil xissiy (emostional) holati** vujudga kelishi mumkin. Pedagogning ijodiy xissiyotlari asosida o‘zaro hamkorlikni tashkil eta olish qobiliyati haqiqiy samara beradi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jarayonning borligi o‘qituvchiga munosabatni ijodiy hissiyotlar asosida tashkil etishga, bolalar bilan psixologik muloqot o‘rnatishga imkon beradi. o‘qituvchi o‘quvchilarga biron-bir narsani o‘rgata olishi uchun ular bilan munosabatga kirishishi shart. **Munosabat** odamlar o‘rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishning ko‘p qirrali jarayonidir. Munosabat birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayriboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunday axborot ayriboshlanishi munosabatning kommunikativchi jihatida ta’riflanishi mumkin. **Munosabatning ikkinchi jhati** munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki harakatlar, xatti- harakatlar bilan ham ayriboshlashdan iborat.

Munosabatning uchinchi jhati munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishdir. SHunday qilib, yagona munosabat jarayoniga shartli ravishda uchta jihatni **kommuniaktiv** (axborot o‘zatish), **interaktiv** (o‘zaro birgalikdagi harakat) va **perstepktiv** (o‘zaro birgalikda idrok etish) jihatlarini alohida ko‘rsatish mumkin.

Kishi birgalikda faoliyat ko'rsatayotganda zaruriyatga ko'ra boshqa odamlar bilan birlashishi, ular bilan muomalaga kirishi, ya'ni aloqa o'rnatishi, o'zaro hamjihatlikka erishishi, kerakli axborot olishi va javob tariqasida axborot berishi lozim. **Munosabatning** o'zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa (avvalo) ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo munosabat vositasi sifatidagi **tildan** iborat ekanligini bildiradi.

Turli xil tillarda so'zlashadigan kishilar bir-birlari bilan murosaga kela olmaydilar. Bu esa birgalikdagi harakatning amalga oshirilishini amri mahol qilib qo'yadi. qo'llaniladigan belgilar (so'zlar, imo-ishoralar va h.k.) zahirida mohiyat munosabatda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bo'lgan taqdirdagina axborot ayriboshlash mumkin bo'ladi. Mohiyat-belgini tevarak atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism juda mazmunga egadir. Qurol odamlarning mehnat faoliyatini ifodalagani singari belgilar ham ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi.

So'zlar, belgilar sistemasi hayot kechirish, ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish va o'zlash vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. Qadimda qo'llarida biron mehnat qurolini ushlab, ko'zlari esa ushbu narsalarga qarab turgan vaqtda bir-birlari bilan munosabatga kirishish uchun aniq tovushlardan foydalanish kishilarga ayniqsa moyillik tug'dirgan. Munosabatga kirishadigan odamlar o'rtasidagi masofa anchagina olis bo'lgan kezlarda ham, xuddi shuningdek qorong'ilikda, tuman tushganda, chakalakzorda uy - fikrini tovushlar vositasida etkazish qo'lay bo'lgan. Til yordamida munosabatga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshqa odamlarning himoyasida aks etayotgani bilan doimiy ravishda to'ldirilib turadi. o'y-fikrlarni ayriboshlash, axborot berish ro'y beradi. So'zlar muayyan bir mohiyatga ega, ya'ni ashyoviy olamga allaqanday tarzda tegishli bo'ladi. o'qituvchi u yoki bu so'zni ishlanganda uning o'zi ham, uning tinglovchilari ham yolg'iz usha bitta hodisani

nazarda tutishadi va ularga anglashilmovchilik yuz bermaydi. Mohiyatlar sistemasi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Uni shakllantirish o'rta ta'limning ham, oliy ta'limning ham markaziy bo'g'ini hisoblanadi.

Nutq bu og'zaki kommunikastiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikastiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki kar-saqov kishilarga biron bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashinishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga uxshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog'lovchilarning hic- hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan. U kommunikastiyaning mazmunini hisoblanishi nazarga ham, munosabatga ham, kirishganlarga nisbatan ham muayan tarzda taalluqli bo'lib nutqiy fikr mulohazalar bilan qo'shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his- hayajonli munosabatda axborot ayriboshlashning alohida nutqsiz jihatini o'zgacha nutqsiz kommunikastiya tarkib topadi.

Nutqsiz kommunikastiya vositalarga qo'l, barmoq va yuz harakatlari, imo- ishora, ohang, pao'za, turq-tarovat, kulgu, ko'z yoshi qilish va shu kabilar kiradi. Bo'lar og'zaki kommunikastiya vositalari so'zlarni to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba'zan esa urnini bosuvchi belgilar sistemasini hosil qiladi. o'rtog'ining boshiga tushgan kulfatdan xabar topib unga hamdardlik bildirayotgan suhbatdosh nutqsiz kommunikastiya belgilarini ishlatadi: yuzlarini g'amgin tutadi, past ohangda, qo'llarini yuziga yo peshonasiga qo'ygan va boshini chayqagan holda chuqur xursinib gapiradi va h.k.

Nutqsiz kommunikastiya amalga oshirish uchun turli xil yosh gruppalariga turlicha vositalar tanlanadi. Masalan, yosh bolalar yig'idan ko'pincha katta yoshdagilarga ta'sir qilish va ularga o'z istaklari hamda kayfiyatini etkazish vositasi sifatida foydalanadilar. Nutqsiz

kommunikatsiyada qo'llaniladigan vositalarning axborotni so'z bilan etkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va hakoza ma'no baxsh etgan xilda turli ohangda talaffo'z eta bilishi kerak. **Nutqsiz kommunikatsiya imo- ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rang baranglik ham rivojlana boradi.** Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola ham suhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga katta yoshdagi kishining so'zlariga ilova bo'ladigan va kuchaytiradigan qo'l-barmoqlari va yuz-harakatining ma'nosini tushunishga o'rganadi.

3.O'qituvchi muomala sub'ekti sifatida.

O'qituvchining bolalar bilan muomalasi muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagoglik nazokati (odobi)ni egallaganiga bog'liq bo'ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlari deganda insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabo'l qilingan. Bu xususiyatlar uning o'qituvchi vazifasida bolalarni o'qitish va bolalarga ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritishining sharti hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari etakchi rol o'ynasa, boshqalari yordamchi rol o'ynaydi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari etakchi rol o'ynaydi. **Birinchi tarkibiy qism- perseptiv**, ya'ni idrok qilish sohasiga taalluqli bo'lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog'i ko'zatuvchanlikdir) etakchi rol uynaydi, o'qituvchiga o'quvchining psixologiyasini, uning psixik holatini o'xshash tarzda idrok etish, muayyan xolda umuman sinf kollektivining ahvoliga va xususan mazkur pedagogik vaziyatdagi ahvoliga to'g'ri baho berish imkonini beradi.

O'qituvchi shaxsining o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari **Ikkinchi tarkibiy qismi - empatiyaga**, ya'ni o'quvchilarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti bolalarga bo'lgan muhabbatdir. **Uchinchi tarkibiya qism** - o'qituvchi shaxsining **o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq** xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan yuksak rivojlangan ehtiyojni hisoblash mumkin, u bilimlarni boshqalarga berishga, bolalar bilan muomala qilishga intilishda, bolalar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo'ladi.

To'rtinchi tarkibiy -tashkil etish qobiliyati ham pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U barcha o'quvchilarning har xil faoliyat turlariga jalb qilinishida, jamoaning har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatish quroliga aylanishida, har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishda namoyon bo'ladi. O'qituvchida ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan ehtiyojni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti bo'lib, unda mavjud bo'lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi.

Endi pedagogik qobiliyatlar strO'qturasiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: xozirjavoblik, tanqid ko'z bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O'qituvchining nutqi, notiqlik qobiliyatining mavjudligi, sO'z boyligi va hokazolar ham muhim rol uynaydi. Tabiatida bir qadar artistlik xususiyatiga ega bo'lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham o'quvchilar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol uynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishining shartigina emas, balki ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. SHu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarning aniq maqsadni ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o'ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom xaqiqiy narsa ekanligini ko'rsatmokda. Masalan, **shaxs persteptiv**

xususiyatlarining eng muhim elementi bo'lgan ko'zatuvchanlik o'qituvchining pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g'ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'zining sotsial-psixologik ko'zatuvchanligini, ya'ni o'quvchilarda turli xarakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyatinigina emas, shu bilan birga ularning paydo bo'lish sabablarini bilib olish, ularga bu sabablarning paydo bo'lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodirdir.

O'qituvchining muhim ijtimoiy yo'l-yuriqlaridan biri **dilkashlikdir**. An'anaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning O'ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy xoldir. Lekin bunday yondashuv bir tomonlamadir. U dilkashlik, odamlarga aralashmaslik shaxsning O'ziga xos xususiyatlarigina bo'lib qolmay, shu bilan birga odamning u yoki bu vaziyatdagi muayyan hulq-atvori hamdir, ya'ni ijtimoiy yo'l-yurig'idir.

Shaxsning xususiyati bo'lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan alokalarga intilish sifatida ta'riflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa O'rnatish bilan birga qo'shib olib boriladi. Dilkashlik va odamlarga aralashmaslikni shaxs xususiyatlari sifatida qarab chiqish ekstra va introversiya tushunchalari bilan bog'liq ravishda samarali bo'ladi. Ekstravert shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta'sirlarga moyillik xosdir. Introvertlar ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, O'z-O'zini nazorat qilishga, refleksiyaga, ichki havotirlikka moyil bo'ladilar. Albatta, O'ta introvertlar bilan ekstravertlar favqulodda hodisa bo'lib, individlar bu ikki chetki nuqtalar O'rtasidagi oraliqda joylashadilar. Dilkashlik ko'proq ekstravert tiplarga, odamlarga aralashmaslik esa introvert tiplarga xosdir.

O'quvchilar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim sotsial yo'l-yO'riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. O'qituvchida ularning

mavjudligi uning pedagogik nazoratga rioya qilishining zamini va sharti hisoblanadi.

Turli yoshdagi O'quvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatish sub'ekti bo'lgan O'qituvchi tutgan yo'lning umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Quyi sinflarda O'qituvchi tashkilotchi bo'lib maydonga chiqadi. V.Dalning lug'atiga qaraganda—to'zuvchi, ta'sis etuvchi (tashkil etish—yo'lga qO'yish, belgilash, tartibga keltirish, to'zish, hosil qilish, qat'iy asoslash, degan sO'zdan) ma'noni bildiradi. Pedagogning kichik yoshdagi O'quvchilar hayotiga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar kollektivlarida talabchan va quvnoq tarbiyachi bo'la oladigan, bolalarning faol ijodkorlik bilan to'la hayotini tashkil etib, ular orasida o'zaro hayrixohlik, g'amho'rlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obro'-e'tibor qozonadilar. Bolalar katta yoshdagi bunday kishilarni o'z do'stlari deb qabo'l qilishga moyildirlar. Bunday munosabat eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga jo'shqin qulaylik bag'ishlaydi, uning ko'pgina tashkiliy vazifalarni hal etishini osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini ardoqlik bilan samarali hal etishiga yordam beradi.

O'smirlar o'qiydigan sinflarda o'qituvchining holati rahbar degan so'z bilan ifodalanishi mumkin. **V.Dal** bu so'zni quyidagicha, ya'ni ko'rsatuvchi, murabbiy, ishboshi, boshlovchi deb ta'riflaydi.

Pedagoglarning o'smirlarga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat o'z-o'zini tashkil qilishning ko'proq ulushini o'ziga qamrab oladi, bu esa o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida o'quvchilarga qo'yadigan talablari mazmunini belgilab beradi. O'smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun talab mavzuiga nisbatan o'qituvchi va o'quvchining bir xil yo'l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziqarli bo'lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo'lishi zarur, yohud

hissiyotlarni engillashtirish va hokazolar uchun kerak, boshqacha soʻzlar bilan aytganda, kollektiv faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz boʻlib qoladi.

Katta yoshdagi oʻsmirlarga nisbatan oʻqituvchi homiy yoki tarbiyachi holatida turadi, bu soʻzlar V. Dal lugʻatida «homiylilik qiluvchi, gʻamxoʻr, serharakat, sifatida taʼriflanadi.

Oʻquvchilar bilan muomala qilish pedagogning oʻz tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni, muloqot olib borishni doimo Oʻrganib borish kerak. Bu Oʻrinda ikki savol tugʻiladi: **«nimani oʻrganish kerak?»** va **«qanday oʻrganish kerak?»**

Pedagog jamoa bilan, bolalar guruhlarini ayrim oʻquvchilar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquvchilar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻya olishi lozim. Oʻquvchilar bilan gaplasha olish (har qanday shaklda) muayyan qoidalarni bilishni va bu qoidalarni amalga oshirishning muayyan usullarini egallashni nazarda tutadi. Ularni qarab chiqamiz.

Oʻquvchilar jamoasi bilan muomala koʻpincha suhbat, leksiya, axborot va hokazolar shaklida boʻladi. xoʻsh, bu muomala samarali boʻlishi uchun nimalar zarur? Birinchi navbatda suhbatni qanday boshlash, qanday qilib darhol Oʻqituvchiniig gaplariga bolalarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida gapirib oʻtamiz. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning qoʻyilishidan boshlash mumkin, bu masalada boʻlajak suhbatning maʼnosi mujassamlashgan boʻladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib koʻrish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli fakti maʼlum qilishdan boshlasa boʻladi, keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Tegishli maqola yoki stitata keltirish ham muvaffaqiyatli boʻlib chiqishi mumkin. Bundan tashkari, darhol

bolalarga bo'lajak suhbat ularning qiziqishlari bilan (jamoaning yoshi, xususiyatlari asosida) borliq ekanligini aytib o'tsa ham bo'ladi.

Mana suhbatga bolalarning diqqati jalb qilindi, ham deylik, endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin etarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Masalan, suhbatni to'zishning bunday varianti bo'lishi mumkin. Dastlab pedagog o'quvchilar ongi va hissiyotiga etkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So'ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illyustratsiyalar sistemasi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan o'xshatishlardan foydalanish juda foydali bo'ladi. SHundan keyin xulosa chiqarish, ya'ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha sO'zlar bilan takrorlash mumkin.

Muomala maqsadini bu xilda ta'riflash o'quvchilar muomalasining asosiy **ikki turi:** rollararo va shaxslararo muomalaning nisbiy mustaqilligi sharoitida uning dialektik birligini ko'rsatib beradi.

Rollararo (amaliy) muomala tashkiliy faoliyatning har xil turlari jarayonida amalga oshiriladi. Faoliyat qatnashchilarining uning maqsadiga, bir-biriga munosabati xarakteriga qarab ular o'rtasida sheriklik yoki o'rtoqlik muomalasi vujudga keladi. o'rtoqlik muomalasi faqat faoliyat qatnashchilarining o'zlari emas, balki xodimlarining faoliyat maqsadiga erishishdagi o'zaro yordami, hayrixohligi va manfaatdorligini nazarda tutadi.

SHaxslararo (erkin) muomala tashkiliy faoliyatdan tashqari amalga oshiriladi. Muomala qiluvchilarning hissiy ko'ngil bog'lashuviga qarab tanishuv, oshna-og'aynigarchilik, do'stlikni farqlash mumkin.

O'quvchilar muomalasining mazmun tomoni ular faoliyatining butun xilma-xilligi bilan belgilanadi. Har bir yoshdagi o'quvchilar uchun muomalaning o'ziga xos hissiy-ma'naviy g'oyasi xosdir. Muomalaning asosiy g'oyasidagi farq shunda namoyon bo'ladiki, u har bir yosh bosqichida o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatini belgilab beradigan etakchi ijtimoiy munosabatlarni asosiy munosabatlar sifatida O'z ichiga oladi.

Umuman olganda, o'quvchilar muomalasining mazmuni o'ziga turmushning buyumlar sohasini, hayotning voqeiy qatlamini, g'oyaviy-ahloqiy muammolari va hissiy-ahloqiy sohasini qamrab oladi. YOshga qarab har bir qatlamning aniq mazmuni va ularning o'zaro nisbati turlichadir. Har bir yosh bosqichidagi muomalaning asosiy g'oyasi o'quvchilar muomalasining asosiy mazmunini aks ettirib, muomala mazmunining u yoki bu tomoni ustun bo'lishini belgilab beradi va asosan uning xilma-xil bo'lishini cheklamay, o'quvchilar uchun ichki sub'ektiv jihatdan ahamiyatli bo'lgan rejani tashkil etadi.

Muomalaning asosiy g'oyasi va mazmuni bilan bog'liq ravishda muomala darajalarini qarab chiqish maqsadga muvofiqdir, ular o'quvchilar muomalasi ob'ektiv mazmunining chuqurligini aks ettiradi. Muomalaning to'rtta darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: faktik, axborot, munozaraviy va oshkoraviy. Muomalaning faktik darajasi — bu suhbatni qo'llab-quvvatlash uchun nutq ayirboshlashdir, buning natijasida suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish mumkin bo'ladi. U individ (o'quvchi)ning atrofdagilar bilan munosabatda o'zini qulay his qilishini qo'llab-quvvatlashdan iborat muhim vazifani bajaradi.

Muomalaning axborot darajasi o'quvchilar o'rtasida ham rollararo, ham shaxslararo muomalada ro'y beradigan g'oyat turli-tuman xossaga ega bo'lgan axborot bilan doimo almashinib turishdir. Bunda bolalarning aqliy qiziqishlari doirasiga juda xilma-xil axborotlar jalb qilinadiki, ularni bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida, o'qituvchilardan, boshqa turli-tuman manbalardan oladilar. Muomalaning munozaraviy darajasi shu sababdan vujudga keladiki, o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir qancha birlashmalarga kiradilar va o'ziga xos shaxs bo'lib, faqat shaxsiy axborot tashuvchilar va u yoki bu faktlarga shaxsiy tarzda izoh beruvchilargina emas, balki normalar va qadriyatlarga ham izoh beruvchilar hisoblanadilar. Natijada o'quvchilarning o'zaro muomalasida turli nuqtai nazarlar to'qnash keladi. Bu to'qnashuvda u yoki bu faktlarga, voqealarga va hokazolarga izoh berish imkoniyati aniqlanadi.

Munozaraviy daraja faoliyatning har xil ko‘rinishlari jarayonida o‘quvchilarning muomalasida katta rol uynaydi. Chunki faoliyat maqsadiga erishish odatda sheriklarning shaxsiy kuch g‘ayratlarini kelishib olishni talab qiladi, bu esa odatda munozara jarayonida sodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov Istiqlol yo‘li «Muammolar va rejalar». Toshkent. 1992 yil.
2. I.A. Karimov «Istiqlol va ma’naviyat» Toshkent.O‘zbekiston 1994 y.
3. Davletshin M.G. «O‘quvchilarda qobiliyatni tarkib toptirish».T., O‘qituvchi 1996 y.
4. Munavvarov A.K. «Pedagogika». T. «O‘qituvchi» 1996 y.